Аннотация. В данной статье на основе статистических данных проведён анализ состояния инвестиционной активности в Республике Узбекистан. В частности, по регионам республики рассмотрены такие важные статистические показатели, как темпы роста инвестиций в основной капитал, общий объём инвестиций в основной капитал, объём инвестиций в основной капитал на душу населения, а также доля иностранных инвестиций и кредитов в структуре инвестиций в основной капитал. По результатам проведённого анализа сформулированы соответствующие научные выводы.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, основной капитал, объём инвестиций, иностранные инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va xususiy sektorni izchil rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, oxirgi besh yil davomida O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Shuningdek, mamlakatda investitsiya siyosatini liberallashtirish, xorijiy kapital ishtirokini kengaytirish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini



rivojlanirish yo'nalishida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, investitsion faoliyatning joriy holatini kompleks iqtisodiy tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

"Investitsiya bitimlarini tuzish va mamlakat nomidan vakillik qilish vakolatiga ega organ – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligidir. Muzokaralar jarayonida qonunchilikda nazarda tutilgan qo'shimcha choralar va himoya mexanizmlari ham ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, maxsus bojxona rejimini joriy etish, soliq va to'lovlar yukini kamaytirish, investitsiya loyihalarining bajarilishini davlat monitoringi asosida nazorat qilish kabi chora-tadbirlar ("UZINFOINVEST" Investitsiya bitimlarini tuzish va amalga oshirish tartibi)"¹.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatda investitsion faoliyatning joriy holatini statistik va iqtisodiy tahlil asosida baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda investitsion samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: investitsion faoliyatning nazariy-uslubiy asoslarini tizimli o'rganish; O'zbekistonda investitsion siyosatning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish; asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va ularning o'sish sur'atlarini baholash; hududlar kesimida investitsion faollik darajasini aniqlash; shuningdek, xorijiy investitsiyalar va kreditlarning tarkibiy ulushini chuqur tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijalari investitsion siyosatni takomillashtirish, hududiy rivojlanish dasturlarini optimallashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishning huquqiy tartibini [1] Mukhammadkhon Soliev o'z tadqiqotida o'rganib chiqqan bo'lsa, Sayfullayeva Madina Ismatovna [2] kapitalga investitsiyalarning barqaror o'sishini ta'minlash uchun investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tahlilini [3] Mirzobek Avezov ko'rib chiqqan. D.M. Mirzahalilova [4] O'zbekistonning energetika investitsiyalari sohasidagi hozirgi holatini tahlil qilgan. Mamatov Bahadir Safaraliyevich va Narzullayeva Khilola Abdukamilovna [5] mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning roli va ahamiyatini yoritib bergan.

Akishova Shakhnoza Davletovna [6] muvaffaqiyatli xorijiy investitsiya loyihalari va amaldagi siyosiy-huquqiy mexanizmlar tahlili orqali O'zbekistonning mintaqadagi iqtisodiy taraqqiyot salohiyatini o'rgangan. Zulkhumor Abdalova hamda Imongali Islomovlar [7] O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining hududiy tuzilmasi masalalarini ko'rib chiqqan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilgan hamda hududlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi xususiyat va omillarni, shuningdek, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlarini yoritib bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kompleks, ko'p bosqichli hamda empirik-analitik yondashuv asosida shakllantirildi. Ilmiy izlanishning nazariy poydevori sifatida investitsiya multiplikatori nazariyasi, kapital jamg'arish modeli va hududiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar usuli orqali asosiy kapitalga investitsiyalarning vaqt mobaynidagi o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ularning uzoq muddatli va qisqa muddatli tebranishlari baholandi. Bazis va zanjirli indekslarni hisoblash usullari yordamida 2024/2010 hamda 2024/2023 nisbatlari aniqlanib, investitsion faollikning nisbiy va mutlaq o'zgarishlari tahlil qilindi. Hududiy differensiallashuv yondashuvi asosida investitsiya faolligi darajasiga ko'ra hududlar guruhlariga ajratilib, klasterlash orqali ularning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari tizimlashtirildi.

Strukturaviy tahlil vositasida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalari va kreditlari ulushining o'zgarish dinamikasi baholandi hamda institutsional o'zgarishlarning investitsion muhitga ta'siri sifat va miqdoriy indikatorlar orqali o'rganildi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi investitsiyalar ko'rsatkichlari kapital jamg'arish intensivligi va hududiy iqtisodiy salohiyatni aniqlash mezonini sifatida qo'llanildi. Nominal va real o'sish ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali iflyatsion omillarning investitsiya dinamikasiga ta'siri hisobga olindi.

Shuningdek, investitsiya oqimlarining hududiy multiplikativ samarasi iqtisodiy o'sish indikatorlari bilan uyg'unlikda tahlil qilinib, sanoat tarkibidagi siljishlar va infratuzilma loyihalari bilan bog'liqligi korrelyatsion

¹ Mukhammadkhon Soliev. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 10, Issue 3, March 2020. "The investment prospects of Uzbekistan."



yondashuv asosida baholandi. Hududlar kesimida investitsiya siklikligi va bazaviy effekt omillari aniqlanib, investitsiya ekspansiyasi hamda iqtisodiy transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli tahlil asosida izohlandi. Yakuniy bosqichda olingan empirik natijalar hududiy rivojlanish strategiyalari bilan komparativ tahlil qilinib, ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda keltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur tahlilda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari hududlar kesimida ko'rib chiqildi. Indeks ko'rsatkichlari (foizlarda) yillik o'sish sur'atlarini ifodalaydi. 2024/2010 ustuni esa 2010-yil bazis yil sifatida olinib, investitsiya faolligining uzoq muddatli dinamikasini ifodalaydi.

1-adval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish surati (yillik)²

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2010 (barobar0	2024/2023 (foizda)
O'zbekiston Respublikasi	104,2	109,4	95,6	102,9	100,2	123,4	131,3	1,3	106,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	63,9	131,1	69,9	105,1	114,9	116,6	146,3	2,3	125,5
Andijon viloyati	94,6	105,1	110,6	106	116,5	121,2	139,4	1,47	115,05
Buxoro viloyati	73,6	98,7	104,7	147,4	94,2	132,2	153,5	2,08	116,1
Jizzax viloyati	118	96,9	147,4	72,4	104,6	134,1	144,4	1,2	107,7
Qashqadaryo viloyati	67,4	112,4	76,5	77,8	80	117,7	156,2	2,32	132,64
Navoiy viloyati	248,6	90,7	77,1	86	109,4	136,3	115,9	0,5	85,03
Namangan viloyati	90,3	108,5	88	100,5	104,2	121,3	261,2	2,9	215,3
Samarqand viloyati	127,4	115,8	128,8	98,7	111,6	127,8	105,5	0,83	82,6
Surxondaryo viloyati	95,8	110,3	77,4	109,7	87,5	148,3	86,2	0,9	58,13
Sirdaryo viloyati	153,9	97,9	111,2	107,7	135,1	117,7	67,08	0,44	57
Toshkent viloyati	104	99,3	92,2	120,3	110,7	121,1	139,2	1,34	114,95
Farg'ona viloyati	107,3	98,7	113,5	105,7	112,4	120,1	101	0,94	84,1
Xorazm viloyati	133,8	87,2	92,7	139,3	94,2	121	120,8	0,9	99,83
Toshkent shahri	147,6	102,3	108,6	105	87,2	115,8	119,1	0,81	102,85

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010-yilda 104,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 131,3 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich 2024/2010 nisbatida 1,3 baravar oshgan. Ayniqsa, 2017–2019-yillarda investitsion faollik sezilarli darajada jadallashgan.

Hududlarni investitsiya faolligi bo'yicha 4 guruhga ajratish mumkin.

I guruh: Yuqori investitsion ekspansiya (2024/2010 > 2,0). I guruhdagi hududlar investitsiya jihatidan jadal industrial rivojlanish bosqichiga kirgan. Bu hududlar quyidagilar:

- Namangan viloyatida 2024-yilda 261,2 foizlik rekord ko'rsatkich qayd etilgan. 2010-yilga nisbatan 2,9 barobar o'sish kuzatilgan bo'lib, bu hudud investitsion jozibadorlik bo'yicha yetakchilardan biri hisoblanadi. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 215,3 foizlik keskin o'sish investitsiya oqimining jadal kengayganini bildiradi.

- Qashqadaryo viloyatida 2,32 barobar o'sish kuzatilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 132,64 foizlik o'sish hududda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilganini ko'rsatadi.

2 Mukhammadkhon Soliev. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 10, Issue 3, March 2020. "The investment prospects of Uzbekistan."



- Qoraqalpog'iston Respublikasida 2,3 barobar o'sish kuzatilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 125,5 foizlik natija hududda investitsion jarayonlar sezilarli darajada faollashganini ko'rsatadi.

- Buxoro viloyatida 2,08 barobar o'sish kuzatilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 116,1 foizlik o'sish qayd etilgan.

Ushbu hududlarda yirik sanoat klasterlari tashkil etilgan. Jumladan:

- neft-gaz, kimyo, elektrotexnika va qurilish materiallari sanoati rivojlantirilgan;
- infratuzilma sezilarli darajada modernizatsiya qilingan;
- Qashqadaryoda – gaz-kimyo majmualari va GTL loyihalari;
- Buxoroda – neftni qayta ishlash va energetika loyihalari;
- Namanganda – to'qimachilik va mashinasozlik;
- Qoraqalpog'istonda – energetika va logistika loyihalari amalga oshirilgan.

Bu hududlarda investitsiya multiplikatori yuqori bo'lib, kapital jamg'arish jarayoni tezlashgan.

II guruh: Barqaror yuqori o'sish ($1,2 < 2024/2010 < 2,0$). Bu guruhga Andijon, Toshkent va Jizzax viloyatlari kiradi.

- Andijon viloyatida 1,47 barobar o'sish kuzatilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 115,05 foizga oshgan.
- Toshkent viloyatida 1,34 barobar o'sish qayd etilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 114,95 foizga oshgan.

- Jizzax viloyatida 1,2 barobar o'sish kuzatilgan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 107,7 foizga oshgan.

Mazkur hududlarda:

- sanoatni diversifikatsiya qilish jarayoni faollashgan;
- avtomobilsozlik, elektrotexnika va farmatsevtika tarmoqlari rivojlangan;
- logistika markazlari shakllangan.

Bu hududlar iqtisodiyotning o'rta darajada industrialashgan mintaqalari sifatida shakllanmoqda.

III guruh: Investitsiya barqarorligi sust hududlar ($0,8 < 2024/2010 < 1,0$). Ushbu guruhga quyidagi hududlar kiradi:

- Samarqand viloyatida – 0,83 barobar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 82,6 foiz;
- Surxondaryo viloyatida – 0,9 barobar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 58,13 foiz;
- Xorazm viloyatida – 0,9 barobar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 99,3 foiz;
- Farg'ona viloyatida – 0,94 barobar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 82,6 foiz;
- Toshkent shahrida – 0,81 barobar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 81,0 foiz.

Bu hududlarda:

- investitsiya o'sishi siklik xarakterga ega;
- xizmatlar sektori ustunlik qiladi;

sanoatning ulushi nisbatan cheklangan.

Toshkent shahrida esa yuqori bazaviy darajaning mavjudligi sababli o'sish sur'atlari nisbatan sekinlashgan bo'lib, bunda moliya, savdo va xizmatlar sektorining ustunligi kuzatiladi.

IV guruh: Investitsion pasayish zonasi ($2024/2010 < 0,8$). Mazkur IV guruhga kiruvchi hududlar sifatida Navoiy va Sirdaryo viloyatlari ajralib turadi.

- Navoiy viloyatida 2024/2010 ko'rsatkichi 0,47 barobarni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 50,0 foiz darajasida shakllangan.

- Sirdaryo viloyatida esa 0,44 barobar ko'rsatkich qayd etilgan bo'lib, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 44,0 foiz darajasida shakllangan.

Mazkur hududlarda quyidagi omillar investitsiya dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan:

- 2010-yilda juda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan;
- keyingi yillarda bazaviy effekt ta'sirida nisbiy pasayish kuzatilgan;
- yangi yirik investitsiya loyihalarining joriy etilishi nisbatan sekin kechgan.

2-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, unda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi hududlar kesimida ko'rib chiqilgan. Mazkur tadqiqotda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'mda) hududlar bo'yicha 15 yillik davr kesimida tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida quyidagi asosiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

- dinamik qatorlar tahlili;
- bazis indekslar usuli;
- hududiy differensiallashuv tahlili;
- investitsiya multiplikatori nazariyasi;
- kapital jamg'arish modeli.

Tadqiqot davomida asosiy e'tibor 2024-yil ko'rsatkichlarining 2010-yilga nisbatan real va nominal o'zgarishlarini aniqlashga qaratildi (2-jadval).

2 – jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)³

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2010 (barobar)	2024/2023 (foizda)
O'zbekiston Respublikasi	16463,7	44810,4	210195,1	239552,6	266240	356071,4	507490,2	30,8247	142,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	496,4	6021,2	7089,8	8110,7	10254	12959,2	20567,7	41,4337	158,71
Andijon viloyati	726,2	1956,5	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	28668	39,4767	153,8
Buxoro viloyati	2147,2	4075,9	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	51663,9	24,061	166,49
Jizzax viloyati	440,8	1304,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	23515,4	53,347	157,07
Qashqadaryo viloyati	1792,8	5894,7	20557,6	17359,1	16012,8	21138	35482,5	19,7916	167,86
Navoiy viloyati	1741,8	1809,1	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	33550,2	19,2617	127,09
Namangan viloyati	660,6	2227,5	12007,2	12982	14775,1	19220,1	54231,4	82,094	282,16
Samarqand viloyati	1083,1	3237,2	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	28946,92	26,7259	112,56
Surxondaryo viloyati	655,3	1843,6	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	16593,1	25,3213	90,63
Sirdaryo viloyati	406,2	1083,3	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	11406,3	28,0805	71,86
Toshkent viloyati	1606,1	4428,1	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	73325,12	45,6541	153,69
Farg'ona viloyati	930,9	2542,3	11040	12625,2	15419,3	19955	21542,69	23,1417	107,96
Xorazm viloyati	416,9	1531,5	5391,8	8292	8769,7	11666,1	15624,1	37,4768	133,9
Toshkent shahri	3309	6854,6	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	91642,8	27,695	128,8

Respublika miqyosida investitsiyalar dinamikasi 2010-yilda 16 463,7 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 507 490,2 mlrd so'mga yetgan, ya'ni o'sish koeffitsiyenti 30,8 baravarga teng bo'lgan. 2010–2024-yillar oralig'ida mamlakatda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 30 baravardan ortiq oshishi quyidagi strategik omillar bilan izohlanadi:

- davlat investitsiya siyosatining faollashuvi;
- sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi va infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi;
- energetika, transport, kimyo, neft-gaz va metallurgiya tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi;
- xususiy va xorijiy investitsiyalar ulushining izchil ortib borishi.

Mazkur jarayon iqtisodiyotda kapital jamg'arish normasining sezilarli darajada oshganligini va ishlab chiqarish salohiyatining kengayganligini ko'rsatadi.

Hududlarni investitsiya faolligi darajasiga ko'ra quyidagi 4 ta guruhga ajratish mumkin.

I guruh: Juda yuqori investitsion ekspansiya (2024/2010 > 40). Mazkur guruhga kiruvchi hududlarda investitsiyalar hajmining keskin oshishi kuzatilgan:

- Namangan viloyatida – 82,1 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 282,16 foiz;
- Jizzax viloyatida – 53,3 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 157,07 foiz;
- Toshkent viloyatida – 45,7 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 153,69 foiz;
- Qoraqalpog'iston Respublikasida – 41,4 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 158,71 foiz.

Mazkur hududlar sanoat va infratuzilma loyihalarining hududiy lokomotivlariga aylangan. Jumladan:

- Namanganda – to'qimachilik, elektrotexnika va qurilish materiallari klasterlari;
- Jizzaxda – erkin industrial zona, avtomobilsozlik va elektrotexnika sanoati;
- Toshkent viloyatida – logistika, energetika va sanoat klasterlari;
- Qoraqalpog'istonda – energetika va transport infratuzilmasi loyihalari jadal rivojlangan.

II guruh: Yuqori o'sish (25–40 baravar). Ushbu guruhga kiruvchi hududlarda ham sezilarli investitsiya o'sishi kuzatilgan:

- Andijon viloyatida – 39,5 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 153,8 foiz;

3 Jadval muallif tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasini saytidan shakllantrildi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



- Xorazm viloyatida – 37,5 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 133,9 foiz;
- Toshkent shahrida – 27,7 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 128,8 foiz;
- Sirdaryo viloyatida – 28,1 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 71,86 foiz;
- Samarqand viloyatida – 26,7 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 112,56 foiz;
- Surxondaryo viloyatida – 25,3 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 90,63 foiz.

Mazkur hududlarda:

- urbanizatsiya jarayoni jadallashgan;
- xizmatlar va sanoat integratsiyasi kuchaygan;
- transport va logistika infratuzilmasi izchil rivojlantirilgan.

III guruh: O'rtacha yuqori o'sish ($20 < 2024/2010 < 25$). Ushbu guruhga kiruvchi hududlarda investitsiyalar hajmining o'rtacha yuqori o'sishi qayd etilgan:

- Buxoro viloyatida – 24,1 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 166,49 foiz;
- Farg'ona viloyatida – 23,1 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 107,96 foiz.

IV guruh: O'rtacha o'sish ($2024/2010 < 20$)

Mazkur hududlarda 2010-yildagi yuqori bazaviy ko'rsatkichlar keyingi davrda nisbiy o'sish sur'atlarining muvozanatli shakllanishiga olib kelgan:

- Qashqadaryo viloyatida – 19,8 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 164,2 foiz;
- Navoiy viloyatida – 19,3 baravar, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 124,8 foiz.

Mazkur hududlarda investitsiya faolligi barqaror rivojlanish bosqichida shakllanib, mavjud sanoat salohiyatining izchil kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

3-jadvaldagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ko'rsatkichlarini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu indikator hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, kapital jamg'arish intensivligi hamda ijtimoiy farovonlikning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

3 – jadval. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)⁴

Hududlar	2010	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2010	2024/2023 %
O'zbekiston Respublikasi	583,2	6140,3	6861	7468,6	9778,8	14916,641	25,58	152,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	302,6	3710	4189,2	5225,5	6514,1	10201,215	33,7118	156,6
Andijon viloyati	282,3	3047,2	3470,1	4361,1	5549,8	8363,617	29,6266	150,7
Buxoro viloyati	1321,5	6295	10462,9	10855,5	15309,4	25073,477	18,9734	163,8
Jizzax viloyati	391,5	8984,7	6470,8	7107,9	10037,4	15445,272	39,4515	153,8
Qashqadaryo viloyati	678,5	6214,7	5148,2	4647,7	6002,6	9856,257	14,5265	164,2
Navoiy viloyati	2031	15604,2	14672,4	17189,8	24778,1	30921,822	15,2249	124,8
Namangan viloyati	290	4229,2	4477,8	4984,4	6339,5	17500,209	60,3455	276,1
Samarqand viloyati	344	3746	3920,7	4642,5	6176,9	6806,397	19,786	110,2
Surxondaryo viloyati	312,7	3792,2	4438,7	4169,4	6442,3	5699,549	18,2268	88,5
Sirdaryo viloyati	564,3	8425,4	9257,1	13919,1	17532,1	12365,880	21,9136	70,5
Toshkent viloyati	618,2	7169	9644,5	12056,8	15784,2	23806,085	38,5087	150,8
Farg'ona viloyati	300,1	2916	3272,3	3917,2	4965,3	5250,347	17,4953	105,7
Xorazm viloyati	264,6	2868,2	4344,3	4517,9	5901,5	7757,735	29,3187	131,5
Toshkent shahri	1472,4	19065,6	20619,8	19539,4	23725,7	29785,110	20,2289	125,5

Hududlarni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi investitsiyalar o'sish sur'atlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I guruh: Juda yuqori o'sish (40 baravardan yuqori). Mazkur guruhga kiruvchi hudud:

- Namangan viloyati – aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi 60,3 baravargacha oshgan.

Bu hududda investitsiya faolligining keskin ortishi sanoat klasterlari va ishlab chiqarish infratuzilmasining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi.

II guruh: Yuqori o'sish (20–40 baravar). Ushbu guruhga quyidagi hududlar kiradi:

- Jizzax viloyati – 39,5 baravar;

⁴ Jadval muallif tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasini saytidan shakllantrildi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



- Toshkent viloyati – 38,5 baravar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi – 33,7 baravar;
- Andijon viloyati – 29,6 baravar;
- Xorazm viloyati – 29,3 baravar;
- Sirdaryo viloyati – 21,9 baravar;
- Toshkent shahri – 20,2 baravar.

Mazkur hududlarda investitsiya o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishi sanoatni diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan bog'liq.

III guruh: O'rtacha o'sish (15–20 baravar). Mazkur guruhga kiruvchi hududlar:

- Samarqand viloyati – 19,8 baravar;
- Buxoro viloyati – 19,0 baravar;
- Surxondaryo viloyati – 18,2 baravar;
- Farg'ona viloyati – 17,5 baravar;
- Navoiy viloyati – 15,2 baravar.

Ushbu hududlarda investitsiya o'sishi barqaror bo'lib, ishlab chiqarish va xizmatlar sektorining izchil rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

IV guruh: Sekin o'sish (15 baravardan past)

Mazkur guruhga:

- Qashqadaryo viloyati – 14,5 baravar o'sish ko'rsatkichi bilan kiradi.

Bu hududda investitsiya o'sish sur'atlarining nisbatan pastroq shakllanishi investitsiya loyihalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi hamda bazaviy davr ko'rsatkichlari bilan izohlanadi.

4-jadvaldagi asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 26,4 foizdan 69,4 foizgacha oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2,63 baravar o'sishni anglatadi.

4 – jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (foizda)⁵

Hududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2023 foizda
O'zbekiston Respublikasi	26,4	18,5	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,3	42,8	56,7	69,399	122,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12,6	48,2	44,6	10	23,7	36,9	38,9	37,4	38,7	56,6	70,1	123,85
Andijon viloyati	8,2	4,4	4,9	7,2	14,8	39,6	36,3	45,6	48,4	63,9	77,9	121,9
Buxoro viloyati	63,2	35,9	52,4	71	44	53,9	48,2	58,5	58,4	72,1	82,3	114,15
Jizzax viloyati	7,6	2,9	7,3	10,8	8,7	48,8	61,9	44,5	47,3	70,7	75,6	106,9
Qashqadaryo viloyati	26,5	17,6	27,5	18	51,1	70,3	69,3	53,6	47	58	70,7	121,9
Navoiy viloyati	25,2	3	5,1	24,2	34	39,9	67,8	61,3	54,4	66,7	82,1	123,1
Namangan viloyati	4,7	21,9	22,6	31,6	33,5	45,8	37,2	29,8	34,7	55,7	82,3	147,8
Samarqand viloyati	3,2	4	2,2	2,8	4,7	27,8	27	34,9	52,7	49,3	59,6	120,9
Surxondaryo viloyati	5,2	10,4	9,8	11,5	21,4	66,3	60,1	45,2	42,3	66	62,4	94,54
Sirdaryo viloyati	9,6	10,8	7,7	4,6	9,6	44,8	48,7	59,8	79,1	81,4	70	85,9
Toshkent viloyati	16,4	15,3	13,7	12	9,6	26	26,7	34,3	32,4	56	71,3	127,3
Farg'ona viloyati	12,3	7,6	8,9	5,8	19,4	42,7	41,3	39,1	44,8	51,8	60,9	117,6
Xorazm viloyati	9,8	2,7	5,8	6,8	8,5	42,5	32	33,5	32,3	47,4	59,2	124,9
Toshkent shahri	39,5	13	16,4	18,1	15,1	36,7	29,9	37,3	30	40,3	51,7	128,3

⁵ Jadval muallif tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasini saytidan shakllantrildi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



Ushbu ijobiy dinamik o'sish, avvalo, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan valyuta liberallashtirish, investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga qaratilgan institutsional islohotlar, xorijiy investorlar uchun yaratilgan kafolat va preferensiyalar tizimining kengaytirilishi, shuningdek, yirik infratuzilmaviy, energetika va sanoat loyihalarining asosan xorijiy moliyalashtirish manbalari hisobiga amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Ayniqsa, 2019–2024-yillar oralig'ida mazkur ulushning sezilarli darajada ortishi O'zbekiston iqtisodiyotining global kapital bozorlariga faol integratsiyalashib borayotganini ko'rsatadi.

2010–2024-yillar davomida O'zbekiston hududlarida asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi tarkibiy transformatsiya bosqichini bosib o'tdi. Past bazadan yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan hududlarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning samaradorligi yaqqol namoyon bo'lgan bo'lsa, an'anaviy sanoat salohiyatiga ega hududlarda investitsiya jarayonlarining barqaror va muvozanatli rivojlanish tendensiyasi shakllanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'atlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida kapital jamg'arish jarayoni sezilarli darajada faollashgan. Xususan, respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 16 463,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 507 490,2 mlrd so'mga yetib, 30,8 baravarga oshgan. Bu holat investitsiya siyosatining institutsional jihatdan mustahkamlanishi, sanoatlashtirish strategiyasining izchil amalga oshirilishi hamda infratuzilma modernizatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Hududlar kesimida tahlil natijalari investitsiya faolligi bo'yicha sezilarli differensiallashuv mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, Namangan, Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston va Buxoro viloyatlari yuqori investitsion ekspansiya bosqichiga kirgan bo'lsa, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida nisbiy pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu farqlar hududiy iqtisodiy salohiyat, tarmoq ixtisoslashuvi, bazaviy effekt hamda yirik loyihalarining hududiy taqsimoti bilan izohlanadi.

Aholi jon boshiga investitsiyalar dinamikasi hududiy rivojlanish darajasining muhim indikatori sifatida investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanganligini tasdiqlaydi. Masalan, Namangan, Jizzax va Toshkent viloyatlarida investitsiya intensivligi yuqori bo'lgan bo'lsa, Qashqadaryo va ayrim an'anaviy sanoat hududlarida o'sish sur'atlari nisbatan sust kechgan.

Chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 2010-yildagi 26,4 foizdan 2024-yilda 69,4 foizga yetgani O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqligi va global kapital bozorlariga integratsiyasi kuchayganini anglatadi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, valyuta liberallashtirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash choralari xorijiy kapital oqimining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilgan.

Umuman olganda, investitsiya jarayonlari mamlakat iqtisodiyotida strukturaviy transformatsiya, sanoat diversifikatsiyasi va hududiy iqtisodiy faollikning kengayishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi tafovutlar investitsiya siyosatini yanada hududiy muvozanatlashgan tarzda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq:

Hududiy investitsiya siyosatini differensiallashtirish. Investitsion rivojlanish sur'atlari nisbatan past hududlar (Navoiy, Sirdaryo va ayrim boshqa mintaqalar) uchun alohida rag'batlantiruvchi mexanizmlar – soliqliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarur.

Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish. Investitsiyalarni faqat yirik sanoat loyihalariga emas, balki kichik va o'rta biznes, innovatsion startaplar hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish. Namangan, Jizzax va Toshkent viloyati kabi yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlarda shakllangan sanoat klasterlari tajribasini boshqa hududlarga joriy etish investitsiya multiplikatori ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Aholi jon boshiga investitsiya ko'rsatkichlarini strategik indikator sifatida qo'llash. Hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda per capita investitsiya darajasini asosiy mezon sifatida qo'llash iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish. Chet el investitsiyalarining yuqori ulushi sharoitida ularning texnologik transferini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga qo'shadigan hissasini yanada kuchaytirish zarur. Bunda investitsiyalarning nafaqat hajmi, balki sifat ko'rsatkichlarini ham baholash muhim hisoblanadi.

Investitsiya monitoringi va prognozlash tizimini takomillashtirish. Hududlar kesimida real vaqt rejimida monitoring olib boruvchi raqamli platformalarni joriy etish investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Infratuzilmani kompleks rivojlantirish. Transport-logistika, energetika va raqamli infratuzilmani izchil rivojlantirish investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlaydi hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faolligi so'nggi o'n besh yil davomida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan. Kapital jamg'arish darajasi sezilarli oshgan, xorijiy investitsiyalar ulushi kengaygan va hududlarda yangi sanoat markazlari shakllangan. Kelgusida investitsiya siyosatini hududiy muvozanat, samaradorlik va innovatsion yo'nalishlar asosida yanada takomillashtirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soliev, M. The investment prospects of Uzbekistan. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 10, Issue 3, March 2020.
2. Sayfullaeva, M. I. Analysis of investments in real capital of Uzbekistan. Innovation Science and Technology. ORCID: 0000-0001-8133-2733.
3. Ruzmetov, B., Avezov, M., Babadjanov, J., Eshniyazova, Y., Panjiyeva, N. Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 449, 04004, 2023.
4. Mirzakhililova, D. M., Haqberdiyev, E. N., Yarmukhamedova, Y. M. Analysis of the current state of energy investments in Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, 2025, Issue 07, Volume 147. e-ISSN: 2409-0085. Available at: <https://t-science.org/>
5. Mamatov, B. S., Narzullaeva, K. A. Investment is the key factor in achieving sustainable development goals. DOI: 10.63550/ICEIP.2025.54.36.035. ORCID: 0009-0004-6227-5103; ORCID: 0009-0006-6832-8792.
6. Akishova, S. D. Uzbekistan: The emerging hub for foreign investment in Central Asia. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, Vol. 4, No. 1, 2025, pp. 1–7.
7. Abdalova, Z., Islomov, I. The analysis of the investment activity in regions of the Republic of Uzbekistan. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. DOI: <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v8i5.2631>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Investitsiyalar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>